

XIX asr fransuz adabiyotida qishloq va shahar hayoti qarama-qarshiligi

Abdurahmonova Hayitgul Yusuf qizi
guli.abdurakhmonova@gmail.com

Tayanch doktorant
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr fransuz adabiyotida qishloq va shahar hayoti o'rtasidagi qarama-qarshilik masalasi tahlil qilinadi. Sanoatlashtirishning keng tarqalishi va shaharlarning o'sishi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy o'zgarishlar davrining yetuk adiblarining asarlarida qanday aks ettirilgani ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida Onore de Balzak, Gi de Mopassan, Emil Zolya, Gyustav Flober va boshqa adiblarning asarlari tahlil qilinib, qishloq va shahar hayotining adabiy tasvirlari, ular o'rtasidagi qarama-qarshilikning adabiy va ijtimoiy-tarixiy konteksti ochib beriladi. Maqolada fransuz adabiyoti urbanizatsiya va industrializatsiyaning murakkab oqibatlarini, ularning jamiyatga, insonlarga va qadriyatlarga ta'sirini qanday aks ettirishi tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: fransuz adabiyoti, XIX asr, realizm, naturalizm, qishloq hayoti, shahar madaniyati, urbanizatsiya, industrializatsiya.

The contrast between rural and urban life in 19th century French literature

Abdurakhmonova Khayitgul
guli.abdurakhmonova@gmail.com

Doctoral student (PhD)
Uzbek state world languages university

Annotation. This article analyzes the contrast between rural and urban life in 19th century French literature. It examines how the social changes resulting from widespread industrialization and urban growth were reflected in the works of prominent writers of the period. The study analyzes the works of Honoré de Balzac, Guy de Maupassant, Émile Zola, Gustave Flaubert, and other writers, revealing literary portrayals of rural and urban life and the literary and socio-historical context of the contrast between them. The article explores how French literature reflected the complex consequences of urbanization and industrialization processes, their impact on society, people, and values, showing the fundamental contradictions: naturalness and artificiality, tradition and modernism, community and individual, progress and decline.

Keywords: French literature, 19th century, realism, naturalism, rural life, urban culture, urbanization, industrialization.

Противопоставление сельской и городской жизни во французской литературе XIX века

Абдурахмонова Хайитгул
guli.abdurakhmonova@gmail.com

Докторант (PhD)
Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация. В данной статье анализируется противопоставление сельской и городской жизни во французской литературе XIX века. Рассматривается, как социальные изменения, возникшие в результате широкого распространения индустриализации и роста городов, отражались в произведениях видных писателей того периода. В ходе исследования анализируются произведения Оноре де Бальзака, Ги де Мопассана, Эмиля Золя, Гюстава

Флобера и других писателей, раскрываются литературные изображения сельской и городской жизни, а также литературный и социально-исторический контекст противопоставления между ними. Статья исследует, как французская литература отражала сложные последствия процессов урбанизации и индустриализации, их влияние на общество, людей и ценности.

Ключевые слова: французская литература, XIX век, реализм, натурализм, сельская жизнь, городская культура, урбанизация, индустриализация.

XIX asr Fransiya tarixida tub o'zgarishlar, inqiloblar va keskin ijtimoiy transformatsiyalar davri bo'ldi. 1789-yilgi Buyuk fransuz inqilobidan so'ng mamlakatda monarxiya, respublika, imperiya kabi turli siyosiy tizimlar almashinib turdi. Biroq bu davrning eng muhim xususiyatlaridan biri – sanoatlashtirishning jadal sur'atlarda rivojlanishi va urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi bo'ldi. Bu o'zgarishlar jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sir ko'rsatdi va, albatta, davr adabiyotida ham o'z aksini topdi.

Fransiyada sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida boshlandi va asr davomida tobora kuchayib bordi. Tarixiy tadqiqotlar ko'rsatishicha, 1800-yilda Fransiya aholisining taxminan 80 foizi qishloq joylarida yashagan bo'lsa, 1900-yilga kelib bu ko'rsatkich 58 foizgacha tushgan (Weber, 1976). Parij aholisi esa 1800-yilda 547000 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1900-yilga kelib bu raqam 2.7 millionga yetgan (Price, 2005). Bu dinamik o'zgarishlar jamiyatda yangi tafovutlar, qarama-qarshiliklar va muammolarni keltirib chiqardi. Fransuz adabiyoti ana shu ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi ko'zgu vazifasini o'tadi. Adabiyotda an'anaviy qishloq hayoti va zamonaviy shahar turmushi o'rtasidagi qarama-qarshilik alohida ahamiyat kasb etdi. Bu qarama-qarshilik nafaqat joy va makon tasvirida, balki qadriyatlar tizimi, axloq me'yorlari, inson tabiati va umuman jamiyat hayotiga bo'lgan qarashlar tizimida ham namoyon bo'ldi.

Ushbu maqolada XIX asr fransuz adabiyotida qishloq va shahar hayoti qarama-qarshiligining qanday aks ettirilgani, bu qarama-qarshilikning adabiy va ijtimoiy-falsafiy ma'nosi, hamda uning adabiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi.

Fransiyada shaharlashish jarayonining o'ziga xos xususiyati shunda ediki, qishloq aholisi faqat Parijga emas, balki Lyon, Marsel, Lil, Tuluz, Bordo kabi ko'plab provinsial shaharlarga ham ko'chib o'tdi (Price, 2005). Bu esa butun mamlakat bo'ylab shahar markazlarining rivojlanishiga olib keldi Parij shahrining o'zgarishi bu davrda alohida ahamiyatga ega bo'ldi. 1853-1870-yillarda baron Jorj-Ejen Osman rahbarligida amalga oshirilgan qayta qurish ishlari natijasida o'rta asrlarga xos tor ko'chalar o'rnini keng bulvarlar, yangi maydonlar va zamonaviy binolar egalladi. Bu o'zgarishlar shaharsozlik sohasida inqilob bo'lib, keyinchalik butun Yevropa shaharsozligiga ta'sir ko'rsatdi. Osman islohotlari vaqtida Parijda 20000 dan ortiq binolar buzildi, 40000 ga yaqin yangi binolar qurildi, va 300 kilometrdan ortiq yo'llar qayta qurildi (Jordan, 1995).

Urbanizatsiya jarayonlarining ijtimoiy oqibatlari ham jiddiy bo'ldi. Bir tomondan, shaharlar, ayniqsa Parij, sanoat, savdo, moliya, madaniyat va san'at markazlari sifatida rivojlandi. Shaharlar ijtimoiy harakatchanlik, yangi imkoniyatlar va zamonaviy qadriyatlar ramziga aylandi. Boshqa tomondan, shaharlarning jadal o'sishi yangi muammolarni keltirib chiqardi: turar-joy tanqisligi, qashshoqlik, sanitariya muammolari, jinoyatchilik va ijtimoiy ziddiyatlar kuchaydi.

Qishloq hayoti esa o'z navbatida chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Sanoatlashtirishning rivojlanishi an'anaviy qishloq xo'jaligiga asoslangan turmush tarzini o'zgartirdi. Ko'plab qishloq aholisi ish qidirib shaharlarga ko'chdi. Qishloqda qolganlar esa yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashishga majbur bo'ldilar. Yevgeniy Veber o'zining "Dehqonlardan fransuzlarga" nomli fundamental tadqiqotida Fransiya qishloq joylari XIX asr davomida nafaqat aholi sonining kamayishini, balki an'anaviy madaniyat, mahalliy shevalar va qadriyatlarning asta-sekin transformatsiyasini ham boshdan kechirganini tahlil qilgan (Weber, 1976).

Shahar va qishloq o'rtasidagi qarama-qarshilik ijtimoiy va madaniy sohalarda ham namoyon bo'ldi. Shahar hayoti ko'pincha modernizatsiya, individual erkinlik, ijtimoiy harakatchanlik, ammo

shu bilan birga axloqiy buzilish va an'analardan uzoqlashish bilan bog'liq edi. Qishloq hayoti esa barqarorlik, an'analar, jamoa birligi, tabiat bilan uyg'unlik, ammo shu bilan birga konservatizm va imkoniyatlar cheklanganligi bilan assotsiatsiya qilinardi. XIX asr fransuz adabiyoti ana shu murakkab ijtimoiy jarayonlarni o'zida aks ettirdi va ko'pincha qishloq va shahar hayotini qarama-qarshi qo'yish orqali davr muammolarini ko'rsatishga harakat qildi.

XIX asr fransuz adabiyoti bir necha yirik adabiy yo'nalishlar doirasida rivojlandi: romantizm, realizm va naturalizm. Bu yo'nalishlarning har biri qishloq va shahar hayotini o'ziga xos nuqtai nazardan tasvirladi.

Romantizm va qishloqning ideallashtirilishi

XIX asr birinchi yarmida hukmron bo'lgan romantizm yo'nalishi ko'pincha qishloq hayotini ideallashtirib, uni tabiat bilan uyg'unlikda yashash, sof insoniy tuyg'ular va an'analar saqlanib qolgan makon sifatida tasvirladi. Romantik adiblar uchun qishloq shahardagi sun'iy munosabatlar, madaniyat va sivilizatsiya tazyiqidan qochish joyi edi. Fransuz romantizmining yirik vakili Jorj Sand (1804-1876) o'zining "qishloq romanlari" turkumiga kiruvchi "La mare au diable" ("Shayton botqog'i") (1846), "La petite Fadette" ("Kichik Fadet") (1849) kabi asarlarida Berri provinsiyasidagi qishloq hayotini samimiy va ko'tarinki ruhda tasvirlaydi. Sand qishloq odamlarining soddaligi, tabiat bilan uyg'unligi va axloqiy sofligini shahar madaniyatining sun'iyli va axloqiy buzilishiga qarama-qarshi qo'yadi. Sandning "qishloq romanlari" o'z vaqtida katta shuhrat qozongan va keyinchalik ko'plab adablarga ta'sir ko'rsatgan (Naginski, 1991).

Viktor Gyugo ham o'z asarlarida qishloq va shahar hayotini qarama-qarshi qo'yadi. Uning "Notre Dame de Paris" ("Parijning Notr-Dam sobori") (1831) romanida Parij shahri murakkab, ziddiyatli, goho vahimali, goho ulug'vor makon sifatida tasvirlanadi. Romanda o'rta asrlardagi Parij, uning arxitekturasini, turli ijtimoiy qatlamlari hayoti tasvirlanib, Notr-Dam sobori roman markazida turadi. Bu asar Gyugoning eng mashhur romanlari qatoriga kiradi va o'z davridayoq juda mashhur bo'lgan.

Realizm va qishloq-shahar munosabatlarining murakkabligi

XIX asr o'rtalarida hukmron bo'lgan realizm yo'nalishi qishloq va shahar hayotini romantiklarga qaraganda ancha murakkab va ziddiyatli qilib tasvirladi. Realizm vakillarining asarlarida qishloq faqat go'zallik va soflik makoni emas, balki qoloqlik, bid'at, jaholat va og'ir mehnat joyi hamdir. Shahar esa nafaqat axloqiy buzulqlik, balki imkoniyatlar, madaniyat va taraqqiyot markazi sifatida ham ko'rsatiladi.

Onore de Balzak (1799-1850) o'zining "La comédie humaine" ("Insoniyat komediyasi") epopeyasi doirasida qishloq va shahar hayotini atroflicha tasvirladi. "Les paysans" ("Dehqonlar") (1844) romanida qishloqdagi ijtimoiy munosabatlar, dehqonlarning turmushi, ularning yer egalari bilan ziddiyatlari realistik tarzda ko'rsatilgan. Balzak qishloq aholisini ideallashtirishdan yiroq bo'lib, ularning manfaatparastligi, qo'polli va jaholatini ham ochiq tasvirlaydi. Balzak o'z romanlarida yer masalasi, mulkdorlar va dehqonlar o'rtasidagi munosabatlar kabi jiddiy ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqqan (Prendergast, 1978).

Boshqa tomondan, Balzakning "Illusions perdues" ("Yo'qolgan illuziyalar") (1837-1843) romani qahramoni Lyusyen Sharden qishloqdan Parijga kelib, poytaxt hayotining murakkabligi va ziddiyatlariga duch keladi. Shahar bu asarda imkoniyatlar va tuzoqlar makoni sifatida ko'rsatiladi. Bu roman bir qishloq yigitining Parijdagi sarguzashtlarini, uning adabiy muhitga kirib borishini, shahar hayotidagi illuziyalarning parchalanishini tasvirlaydi.

Gyustav Flober (1821-1880) o'zining mashhur "Madame Bovary" ("Bovari xonim") (1857) romanida provinsial hayotning zerikarli va bo'g'uvchi muhitini tasvirlaydi. Roman qahramoni Emma Bovari qishloq hayotidan qoniqmaydi va shaharda ko'rgan romanlardagi hayotni orzu qiladi. Flober bu orqali qishloq va shahar o'rtasidagi tafovutni, qishloq hayotining cheklanganligi va shahar hayotiga bo'lgan romantik tasavvurlarni ko'rsatadi. Bu roman fransuz adabiyotining eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi va o'z vaqtida katta shov-shuvga sabab bo'lgan.

Naturalizm va ijtimoiy tanqid

XIX asr oxirida paydo bo'lgan naturalizm yo'nalishi qishloq va shahar hayotini yanada tanqidiy nuqtai nazardan ko'rsatdi. Naturalistlar uchun ham qishloq, ham shahar muhiti inson taqdirini belgilovchi ijtimoiy-biologik omillar sifatida ko'rildi. Emil Zolya (1840-1902) "Les Rougon-Macquart" ("Rugon-Makkarlar") romanlar turkumida Ikkinchi imperiya davridagi fransuz jamiyatining turli qatlamlarini tasvirlaydi. "La Terre" ("Yer") (1887) romanida qishloq hayotini, dehqonlarning og'ir mehnati, ularning yer uchun kurashini, qishloqdagi shafqatsizlik va zo'rvonlikni ko'rsatadi. Zolya qishloq hayotini romantik ideallashtirmasdan, balki barcha dahshatlari bilan tasvirlaydi. Bu roman Fransiya qishloq hayotining eng ta'sirchan va realistik tasvirlaridan biri bo'lib, qishloq idealizatsiyasiga zarba bergan.

Qishloq hayotining adabiy talqinlari

XIX asr fransuz adabiyotida qishloq hayoti bir necha asosiy aspektlarda tasvirlangan:

1. **Tabiat bilan uyg'unlik.** Ko'plab adiblar qishloq hayotini tabiat bilan uyg'unlikda yashash, tabiat ritmi bilan bog'liq hayot sifatida tasvirlaydilar. Alfons Dode (1840-1897) o'zining "Les lettres de Provence" ("Provansdan xatlar") (1869) asarida Janubiy Fransiya tabiatini, u yerdagi hayotning o'ziga xosligini ta'riflaydi. Bu asar Provans mintaqasidagi hayot, urf-odatlar, an'analar haqida hikoya qiladi va bu mintaqaning adabiy xaritasini yaratadi.
2. **An'analar va barqarorlik.** Qishloq hayoti ko'pincha an'analarning saqlanib qolinishi, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadriyatlar, urf-odatlar makoni sifatida tasvirlanadi. Jorj Sand o'z asarlarida qishloq hunarmandlarining an'anaviy mahoratini, ularning o'z kasbiga bo'lgan muhabbatini ko'rsatadi. Bu romanda musiqachilar jamoasi, ularning an'analari, dunyoqarashi tasvirlanadi (Naginski, 1991).
3. **Og'ir mehnat va qashshoqlik.** Realistik va naturalistik adabiyotda qishloq hayotining og'ir tomonlari – dehqonlarning mashaqqatli mehnati, ularning qashshoqligi, tabiat ofatlariga qarshiligi ham ochiq tasvirlanadi. Emil Zolya "La Terre" ("Yer") romanida dehqonlarning og'ir mehnati va qiyinchiliklarini ko'rsatadi. Bu roman dehqonlarning yer uchun kurashi, og'ir hayot sharoitlari, qishloq hayotining qorong'i tomonlarini tasvirlaydi (Brown, 1995).
4. **Jamoa va oila.** Qishloq hayotida jamoa munosabatlari, qo'ni-qo'shnichilik, oilaviy aloqalar muhim o'rin tutadi. Bu holat ham adabiyotda o'z aksini topgan. Gi de Mopassan (1850-1893) o'zining ko'plab hikoyalarida qishloq hayotidagi insoniy munosabatlarni, oila va jamoa aloqalarini tasvirlaydi. Mopassanning "Une vie" ("Hayot") (1883) romani qishloq hayotini, u yerdagi oilaviy va jamiyat munosabatlarini tasvirlaydi.

Shahar hayotining adabiy talqinlari

Shahar hayoti ham o'z navbatida turli aspektlarda tasvirlangan:

1. **Ijtimoiy harakatchanlik va imkoniyatlar.** Shahar ko'pincha ijtimoiy pog'onadan ko'tarilish, boylik orttirish, shuhrat qozonish imkoniyatlari makoni sifatida tasvirlanadi. Onore de Balzakning "Le père Goriot" ("Gorio ota") (1835) romanida Rastinyak obrazi orqali Parijda o'z o'rnini topishga intilayotgan yosh yigit taqdiri ko'rsatiladi. Bu roman Parij jamiyatining turli qatlamlari, ulardagi munosabatlar, shahar hayotining murakkabliklarini ochib beradi. Rastinyak obrazi XIX asr fransuz adabiyotidagi eng yorqin obrazlardan biri bo'lib, shahar muhitiga moslashish uchun kurashayotgan yoshlarning tipik vakili sifatida tarixga kirgan (Prendergast, 1978).
2. **Axloqiy buzilish va yolg'izlik.** Shahar shu bilan birga axloqiy buzilish, saroblar, yolg'izlik makoni sifatida ham tasvirlanadi. Shahar odamni yutib yuboradi, uning individualligini yo'qotadi. Sharl Bodler (1821-1867) o'zining "Le spleen de Paris" ("Parij tushkunligi") she'rlar turkumida Parijdagi yolg'izlik, begonalashuv hissini tasvirlaydi. Shuningdek, Bodlerning "Les fleurs du mal" ("Yovuzlik gullari") (1857) she'riy to'plamida shahar muhiti, undagi axloqiy tanazzul poetik tarzda tasvirlanadi (Benjamin, 1973).
3. **Sinfy ziddiyatlar.** Shahar hayoti ko'pincha keskin ijtimoiy ziddiyatlar, boylar va kambag'allar o'rtasidagi tafovut makoni sifatida ko'rsatiladi. Viktor Gyugoning romanlarida Parij ko'chalarida, kanalizatsiya quvurlarida yashovchi qashshoqlarning hayoti tasvirlanadi.

Bu romanlarda Parij shahrining qashshoq aholi yashayotgan hududlari, ularning og'ir turmushi ko'rsatiladi. (Brombert, 1984).

4. **Modern hayot.** Shahar shuningdek, modernizatsiya, yangi texnologiyalar, yangi turmush tarzi makoni sifatida ham ko'rsatiladi. Biroq bu yangiliklar ko'pincha insonda begonalashuv tuyg'usini uyg'otadi. Emil Zolya "Nana" (1880) romanida shahar hayotining kiborlik va razolat o'rtasidagi ziddiyatlarini tasvirlaydi. Bu roman Parijning zaminidagi hayot, yuqori jamiyat axloqining buzilishi, shahar hayotining murakkab tomonlarini ko'rsatadi.

Qishloq va shahar hayoti qarama-qarshiligi adabiy obrazlar orqali

XIX asr fransuz adabiyotida qishloq va shahar hayoti qarama-qarshiligi nafaqat tasvir obyekti sifatida, balki adabiy obrazlar, personajlar taqdiri orqali ham ko'rsatilgan. Bu obrazlar qishloq va shahar o'rtasidagi madaniy, axloqiy, ijtimoiy farqlarni ko'rsatish uchun xizmat qilgan.

Qishloqdan shaharga kelgan obrazlar

Qishloqdan shaharga kelib, u yerdagi hayotga moslashishga harakat qiluvchi obrazlar XIX asr fransuz adabiyotida keng tarqalgan. Ularning taqdiri orqali adiblar qishloq va shahar o'rtasidagi madaniy farqlarni, qahramonning ichki evolyutsiyasini ko'rsatadilar.

Balzakning "Yo'qolgan illuziyalar" romanidagi Lyusyen Sharden obrazi bunga yorqin misol bo'la oladi. Angulemdagi qishloq tipografiyasida ishlagan yosh shoir Lyusyen Parijga kelib, adabiy muvaffaqiyat qozonishga harakat qiladi. Biroq poytaxtning adabiy doiralari, u yerdagi raqobat va makkorlik uni qiyin ahvolga soladi. Lyusyen illuziyalarini yo'qotadi, axloqiy tanazzulga yuz tutadi. Bu roman qishloqdan chiqqan yoshlarning shahar hayotiga moslashishi qanchalik qiyin bo'lganini ko'rsatadi. Roman XIX asr adabiy hayotining ham tanqidiy tasvirini beradi (Prendergast, 1978).

Floberning "Bovari xonim" romanidagi Emma Bovari ham qishloqda yashab, shahar hayotini orzu qiladi. Uning romantik xayollari, adabiyotdan olgan tasavvurlari va haqiqiy hayot o'rtasidagi ziddiyat fojiali oqibatlariga olib keladi. Bu roman qishloq hayotidan norozilik, shahar hayotiga bo'lgan romantizirlashgan munosabat, reallik va xayollar o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatadi. Emma Bovari obrazi XIX asr fransuz adabiyotining eng murakkab va ziddiyatli ayol obrazlaridan biri hisoblanadi (Porter & Gray, 2002).

Shahardan qishloqqa kelgan obrazlar

Boshqa tomondan, shahardan qishloqqa kelgan obrazlar ham adabiyotda uchraydi. Ular ko'pincha shahar madaniyatini, bilimini qishloqqa olib keladilar, ammo qishloq muhitiga moslashishda qiyinchilikka duch keladilar. Gyustav Floberning "Un coeur simple" ("Sodda qalb") (1874) qissasidagi Felisita obrazi Parijdan kichik provinsial shaharchaga kelgan xizmatkor ayol. U shahar madaniyatini, tartibini o'zi bilan olib keladi, ammo provintsial turmushning oddiyligi va samimiyligidan ta'sirlanadi. Bu qissa qishloq hayotining soddaligi, samimiyligini ko'rsatadi. Asarning asosiy g'oyalaridan biri – oddiy insonlarning ichki dunyosi, ularning muhabbati va sodiqligidir.

XIX asr fransuz adabiyotida qishloq va shahar qarama-qarshiligi oddiy joylashish farqi emas, balki chuqur badiiy-falsafiy ma'noga ega bo'lgan qarama-qarshilik sifatida tasvirlanadi. Bu qarama-qarshilik orqali adiblar muhim ijtimoiy, axloqiy va falsafiy masalalarni ko'taradilar.

Tabiiylik va sun'iylik

Qishloq va shahar qarama-qarshiligining eng muhim falsafiy aspektlaridan biri - tabiiylik va sun'iylik o'rtasidagi ziddiyat. Qishloq hayoti tabiat bilan uyg'unlikda, tabiiy qonunlarga bo'ysunishda ko'rsatilsa, shahar hayoti sun'iy, insonlar tomonidan yaratilgan qonunlar, tartiblar, an'analar asosida qurilgan hayot sifatida tasvirlanadi.

Sharl Bodler (1821-1867) o'zining "Les fleurs du mal" ("Yovuzlik gullari") (1857) she'riy to'plamida shaharning sun'iyligini, uning tabiatdan uzoqlashganligini tanqid qiladi. Shu bilan birga, u shaharning o'ziga xos go'zalligini ham tan oladi. Bodler shoir sifatida shahar hayotining go'zalligi va dahshatlarini, uning chuqur ziddiyatlarini yorqin ko'rsata olgan (Benjamin, 1973).

An'ana va modernizm

Qishloq va shahar qarama-qarshiligi orqali adiblar an'ana va modernizm o'rtasidagi ziddiyatni ham ko'rsatadilar. Qishloq an'analarning saqlovchisi, barqaror qadriyatlar makoni sifatida tasvirlanadi. Shahar esa modernizm, yangilik, o'zgarishlar markazi sifatida ko'rsatiladi.

Emil Zolya o'zining "Parij" romanida modernizm, yangi g'oyalar, yangi qadriyatlar tarafdori sifatida namoyon bo'ladi. U shahardagi o'zgarishlarni, yangi texnologiyalarni ijobiy baholaydi. Bu roman XIX asr oxirida Fransiyada bo'layotgan ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarni, ularning jamiyatga ta'sirini ko'rsatadi (Brown, 1995).

Jamoa va individ

Qishloq va shahar qarama-qarshiligi individ va jamoa o'rtasidagi ziddiyatni ham ifodalaydi. Qishloq hayoti ko'pincha jamoa hayoti, jamoaviy qadriyatlar, oila va qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan muhit sifatida tasvirlanadi. Shahar hayoti esa ko'proq individualizm, shaxsiy erkinlik, shaxsiy harakatlarga asoslangan muhit sifatida ko'rsatiladi. Gi de Mopassan "Une vie" ("Hayot") (1883) romanida qishloq va shahar hayoti o'rtasidagi bu farqni ko'rsatadi. Romanda qishloqdagi jamoa hayoti, insonlar o'rtasidagi yaqin munosabatlar, oilaviy qadriyatlar tasvirlanadi. Bu roman insonning hayot yo'li, uning shodliklari va qayg'ulari haqida hikoya qiladi (Porter & Gray, 2002).

Taraqqiyot va tanazzul

XIX asr fransuz adabiyotida qishloq va shahar qarama-qarshiligi taraqqiyot va tanazzul dialektikasini ham aks ettiradi. Shahar taraqqiyot, ilm-fan, madaniyat markazi sifatida tasvirlanadi, ammo shu bilan birga u axloqiy tanazzul, insoniy qadriyatlarning yo'qolishi makoni sifatida ham ko'rsatiladi. Onore de Balzak "Gorio ota" romanida Parij hayotini tasvirlar ekan, u yerdagi taraqqiyot va tanazzulning birligini ko'rsatadi. Romanda shahardagi turli ijtimoiy qatlamlar, ularning hayot tarzi, qadriyatlari tasvirlanadi. Bu roman XIX asr boshlaridagi Parij jamiyatining eng muhim tasviri hisoblanadi (Prendergast, 1978).

XIX asr fransuz adabiyotida qishloq va shahar hayoti qarama-qarshiligi muhim adabiy va ijtimoiy-falsafiy mavzu bo'lib, davr adabiyotining ko'pgina yetuk namunalarida o'z aksini topdi. Bu qarama-qarshilik orqali adiblar nafaqat ikkita turli yashash joyini, balki ikkita turli dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, hayot falsafasini ham ko'rsatdilar. Romantizm vakillari ko'pincha qishloq hayotini ideallashtirib, uni tabiat bilan uyg'unlik, soddadillik va samimiylik makoni sifatida tasvirladilar. Realizm vakillari qishloq va shahar hayotini yanada murakkab, ziddiyatli qilib ko'rsatdilar. Naturalistlar esa har ikki muhitni ham tanqidiy nuqtai nazardan tasvirladilar. Qishloq va shahar qarama-qarshiligi ko'pgina hollarda global qarama-qarshiliklarning konkret ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi: tabiiylik va sun'iylik, an'ana va modernizm, jamoa va individ, taraqqiyot va tanazzul o'rtasidagi ziddiyatlar.

Fransuz adabiyoti urbanizatsiya va industrializatsiya jarayonlarining murakkab oqibatlarini, ularning jamiyatga, insonlarga, qadriyatlarga ta'sirini ko'rsatdi. Bu adabiyot orqali biz XIX asr Fransiyasidagi ijtimoiy o'zgarishlarni, ularning insonlar hayotiga ta'sirini chuqurroq tushunish imkoniga ega bo'lamiz. Zamonaviy dunyoda ham qishloq va shahar o'rtasidagi munosabat masalasi o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Ayni paytda global urbanizatsiya jarayonlari davom etayotgan bir sharoitda, XIX asr fransuz adabiyotida ko'tarilgan masalalar bizga bu jarayonlarning inson hayotiga, madaniyatga, qadriyatlarga ta'sirini tushunishda yordam beradi.

Adabiyorlar ro'yxati:

1. Benjamin, W. (1973). *Charles Baudelaire: A Lyric Poet in the Era of High Capitalism*. London: New Left Books.
2. Brombert, V. (1984). *Victor Hugo and the Visionary Novel*. Cambridge: Harvard University Press.
3. Brown, F. (1995). *Zola: A Life*. New York: Farrar, Straus & Giroux.
4. Jordan, D. P. (1995). *Transforming Parij: The Life and Labors of Baron Haussmann*. New York: Free Press.

5. Naginski, I. (1991). *George Sand: Writing for Her Life*. New Brunswick: Rutgers University Press.
6. Porter, L. M., & Gray, E. F. (2002). *Gustave Flaubert's Madame Bovary: A Reference Guide*. Westport: Greenwood Press.
7. Prendergast, C. (1978). *Balzac: Fiction and Melodrama*. London: Edward Arnold.
8. Price, R. (2005). *A Social History of Nineteenth-Century France*. New York: Holmes & Meier.
9. Weber, E. (1976). *Peasants into Frenchmen: The Modernization of Rural France, 1870-1914*. Stanford: Stanford University Press.